

ASHTARXONIY UBAYDULLAXON

X.N.Nematov

O'zMU Tarix fakulteti

“Hujjatchilik, hujjatshunoslik

va arxivshunoslik” yo‘nalishi

2 bosqich magistri

Anotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro xonligining Ashtarxoniylar hukmdorlaridan bo‘lgan Ubaydullaxonning siyosiy va ijtimoiy sohada amalga oshirgan ishlariga tavsif berilgan. Hamda real hokimiyatga ega bo‘lgan so‘nggi Ashtarxoniylar hukmdor sifatida tasvirlangan.

Kalit so‘zlar: Buxoro xonligi, Ashtarxoniylar, Ubaydullaxon, Subxonqulixon, Jo‘ybor xojalari, pul isloxoti, Ubaydullanoma, xonobod chorbog‘i.

Ubaydulloxon to‘liq ismi Ubaydullo Muhammad Bahodirxon ibn Subhonqulixon 1681 yil Buxoroda tavallud topgan. Armeniy Vamberiy malumotlariga tayanib A.Zamonov o‘zining “Buxoro xonligining Ashtarxoniylar hukmdorlari”[1] risolasida keltirishicha Ubaydullaxon madrasa ta‘limini olgan, o‘z zamonasining o‘qimishli insonlaridan biri bo‘lgan.

Subxonqulixon vafotidan oldin taxt vorisi sifatida nabirasi Muqimxonni tayinlaydi. Ammo Ubaydullaxon mamlakatda nufuzi yuqori bo‘lgan ulamolar qo‘llab quvvatlashi va kuchli qo‘shin yordamida Buxoro taxtiga ega chiqadi. 702-1711yillar mobaynida hukmronlik qilgan Ubaydullaxon ham Ashtarxoniylar sulolasining fitna qurboni bo‘lgan vakillari sirasiga kiritiladi.

Ubaydullaxon boshqa Ashtarxoniylar hukmdorlar orasida birmuncha qat‘iyatli va g‘ayrat-shijoatli hukmdor edi. U murakkab sharoitda Buxoro xonligini boshqargan. Iqtisodiy tanazzul va ichki nizolardan tashqari jung‘orlarning harbiy bosqinlari, qalmoqlar xurujidan qochgan qozoqlar va qoraqalpqlarning Movarounnahr hududiga ko‘chib kelishi vaziyatni yana ham murakkablashtirgan.

U markaziy hokimiyatni mustahkamlash yo‘lida ko‘plab ijtimoiy-siyosiy slohotlarni amalga oshiradi, natijada davlat amaldorlariga nisbatan talabchanlik va bosim kuchayib boradi. Bunday munosabatga ko‘nikmagan amaldorlar o‘z manfaatlarini yo‘lida fitna yo‘lidan boradi, va oxir oqibatda Ubaydullaxon fitna qurboniga aylandi.

Ubaydullaxon mamlakatda hukm surayotgan siyosiy tarqoqlikni tugatishga hamda markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlashga harakat qilgan so‘nggi ashtarxoniylar hukmdori bo‘ldi. Uning Samarqand, Xisor, Termiz va Shahrisabzga qilgan yurishlari natijasiz tugagan bo‘lsada, uzoq qamaldan so‘ng Balxni egallashga muvaffaq bo‘ldi. Manbalarning guvohlik berishicha Ubaydullaxon Balxni egallagach, qo‘shindagi otlar va tuyalar dehqonlar ekinlarini payhon qilmasliklari haqida buyruq beradi. Bu bilan u o‘ziga soliq to‘lovchi aholi manfaatini ko‘zlagan va oddiy aholini o‘ziga nisbatan ihsosini so‘ndirmaslikka harakat qilgan.[2]

Shuningdek Ubaydullaxonning mahalliy hukmdorlar hamda amirlarning o‘zboshimchaligi hamda markaziy hokimiyatga qarshiligini sindirish yo‘lidagi ko‘plab harakatlari samara bermadi. Ubaydullaxon davlatdagi boshqaruv sohasida islohot o‘tkazishga harakat qilib, amaldorlarni mansabidan chetlashtirdi. Ularning o‘rniga hunarmandlar va savdogarlarning bolalarini mansablarga tayinladi. Hamda mamlakatdagi yirik yer egalari bo‘lgan jo‘ybor shayxlarning soliq imtiyozlarini bekor qildi. Favqulodda o‘tkazilgan bu tadbirlar ham biror bir foyda bermasdan, aksincha Ubaydullaxonning bu harakatlari uning siyosatidan norozi kuchlarning ko‘payishiga hizmat qildi holos.

Ubaydullaxon boshchiligidagi davlat raxbarlari iqtisodiy inqirozga yuz tutayotgan mamlakatni faol islohotlar bilan olib chiqmoqchi bo‘lishgan. Shunday urinishlardan biri mustaqil amirlarning iqtisodiy qudratiga zarba berish, davlat hazinasini boyitish, hamda mamlakat moliyaviy axvolini yaxshilash maqsadida

1708 yilda Mehtar Shafi'tashabbusi bilan pul islohoti o'tkazildi.[3] Bu islohotga ko'ra, hazinada mavjud kumush tangalar eritilib, har biridan to'rtta kumush tanga qayta zarb qilindi. Qiymati past bo'lgan yangi tangalar eski tangalar bilan bir xil muomalada bo'lishi e'lon qilindi. Ammo, zarb etilgan past qiymatli tangalar bozorlarda savdogarlar tomonidan olinmasdan, do'konlar yopib qo'yildi. Natijada aholining noroziligi kuchayib, Buxoroda qo'zg'olon ko'tarildi. Bu ko'zg'olon katta kiyinchilik bilan bostirilgan bo'lsada, mamlakatdagi ahvol yaxshilanmadi va 1711 yilda Ubaydullaxon fitnaning qurboni bo'ldi.[4]

Ubaydullaxonning o'limidan so'ng mamlakatda siyosiy tarqoqlik yanada kuchaydi. Alohida viloyatlarning harbiy-siyosiy qudrati orta borib Buxoro, Samarqand, Toshkent, Balx, Shahrisabz va Badaxshon hokimlari o'zlarini mutlaqo mustaqil hisoblaganlar. Mana shunday sharoitda Buxoro taxtiga 16 yoshli Abulfayzxon (1711-1747 yy.) o'tkazildi. Ayrim manbalar Abulfayzxon taxtga o'tirgan paytdayoq Ubaydullaxonning siyosatini davom ettirishga xarakat qilganligini tasdiqlasada, uning atrofidagi amirlar bu harakatlarga keskin qarshi chiqdilar. Har tomonlama mavkeiga ega bo'lgan amirlar Abulfayzxondan o'z manfaatlari yo'lida foydalandilar va oxir oqibatda Abulfayzxon qo'g'irchoq hukmdorga aylanib qoldi.

Ubaydullaxon davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid islohotlarni amalga oshirish bilan bir qatorda mamlakatning obodonchilik ishlariga ham etibor qaratgan. Ubaydullaxon saroyida xizmatda bo'lgan Mir Muhammad Amin Buxoriy uning siyosiy faoliyatiga bag'ishlab 1716-yilda yozilgan "Ubaydullanoma" asarida obodonchilik ishlarini quyidagicha yoritib bergan: "Ubaydullaxon mamlakatda obodonchilik ishlariga alohida etibor qaratgan. U tomonidan xonlikda madrasa va Buxoroning g'arbiy tomonida 1709-yilda Xonobod chorbog'i barpo qilingan bo'lib, ushbu inshootlar o'z davrining hashamatli obidalari bo'lgan".[5]

Aynan Ubaydullaxon Ashtarxoniylar sulolasining real hokimyatga ega so'nggi vakili bo'ldi. Undan keyin taxtga o'tirgan sulola vakillaridan hech biri real hokimyatga ega bo'lmasdan sulolaning inqirozi tomon odimladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Zamonov, A. Ismoilov, F. "Buxoro xonligining Ashtarxoniylar hukmdorlari"
2. Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқарув тарихи. - Тошкент. Янги аср авлоди, 2012.- Б 281.
3. Давидович, Е. А. История монетного дела средней Азии XVII-XVIII вв. (золотке и серебряные монеты Джанидов) Душанбе. 1964. 149-152 сс.
4. Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқарув тарихи. - Тошкент. Янги аср авлоди, 2012. 281-б.
5. Мир Мухаммад Амин Бухорий. Убайдуллонаме / Перевод и пермечания А.А. Семёнов. –Т.: Фан, 1957 .142- с